

## O'QUV DASTUR PASPORTI

*O'quv dastur uzlusiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning SSV 2024 yil 06 iyuldag'i № MMO – 780 dastur tasdiqlash ro'yhatiga asosan tasdiqlangan.*

*Amal qilish muddati 2029 yil gacha*

<b>Ta'lim muassasasi nomi</b>	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
<b>Kafedra/ bo'lim</b>	Otorinolaringologiya kafedrasи
<b>O'quv dastur nomi</b>	«Otorinolaringologiya»
<b>O'qish turi</b>	ixtisoslashtirish
<b>O'quv dastur mualliflari</b>	S.S. Arifov - t.f.d., professor, kafedra mudiri , D.T. Artikova - t.f.n., assistent, I.B. Baxadirova - assistent
<b>Siklning umumiy soati</b>	1296 kredit

### Dars o'tuvchi pedagoglar

S.S. Arifov t.f.d., professor, kafedra mudiri	T.Sh. Mamatov t.f.n., dotsent	D. E. Pardaev t.f.n., dotsent	A.Ch. Xushbakov t.f.n., assistent	D.T. Artikova t.f.n., assistent	A.B. Rasulov.P hD, assistent	I.B. Baxadirova assistent

<b>Maqsad</b>	nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish asosida, amaldagi standartlar va protokollarga muvofiq LOR a'zolari kasalliklarni bilan xastalangan bemorlarga ambulator va statsionar sharoitida tashxis qo'yish, davolash va reabilitatsiya qilishni amalga oshiradigan mutaxassis – shifokor otorinolaringolog tayyorlashdan iborat.
<b>Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingen</b>	anesteziolog-renimatolog, onkolog, oftalmolog, jarroh, bolalar jarrohlari
<b>Dastur vazifalari</b>	Kasalliklarining kelib chiqishi, shakllanishi, kechishi, davolash turlarini belgilash bilan LOR a'zolarining anatomik, fiziologik xususiyatlari orasidagi o'zaro bog'liqligini o'zlashtirish.  LOR a'zolari kasalliklarini tashxislashda qo'llaniladigan usullarini amaliy bajarish, ular natijalarini tahlil etishni rivojlantirish.  Ko'p uchraydigan LOR a'zolari kasalliklarining shakllanish

	<p>mexanizmi, klinik kechishi, davolash va reabilitatsiya chora-adbirlari, profilaktikasiga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni otorinolaringologiyaning zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘zlashtirish.</p> <p>LOR a’zolari kasalliklari bilan xastalangan bemorlarni kuzatish davomida amalda qo’llanib kelayotgan klinik protokollar, standartlarni tahlil qilish va ularni kasalliklarning turli klinik kechishlarida qo’llash bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lish.</p> <p>Shifokorlarning ko‘p uchraydigan LOR-a’zolari kasalliklarni oldini olish va dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini, hamda tibbiy madaniyatni oshirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish.</p>
<b>Modullar</b>	<p>Modul 1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimida otorinolaringologik xizmatning tuzilishi va faoliyat yuritishi</p> <p>Modul 2. LOR a’zolarining anatomo - fiziologik xususiyatlariga zamonaviy qarashlar.</p> <p>Modul 3. LOR a’zolari holatini baholash uchun qo’llaniladigan zamonaviy tekshirish usullari.</p> <p>Modul 4. Eshitish va muvozanat a’zosi kasalliklarining etiopatogenetik mexanizmlari asosida tashxislash, davolash va reabilitatsiyasiga zamonaviy qarashlar.</p> <p>Modul 5. Burun va burun yondosh bo‘shliqlari kasalliklarini etiopatogenetik tashxislash va davolashga yangicha yondshuv.</p> <p>Modul 6. Halqum kasalliklarni tashhislash va zamonaviy standarlar bo‘yicha davolash.</p> <p>Modul 7. Hiqildoq kasalliklarni tashhislash va davolashga zamonaviy qarashlar.</p> <p>Modul 8. Yuqori nafas yo‘llarining yuqumli kasalliklari va granulomalarini etiopatogenezik davosi va profilaktikasining zamonaviy jihatlari</p>
<b>O‘qish bazalari</b>	<p>«Prof Med Servis» MChJ</p> 

	<b>TXKMRM klinikasi</b>
	
	<b>«Shifo Ziyo Plyus» XK</b> 
	<b>«Shoxrux biznes plyus» XK</b> 
	<b>Shaxar 2-son Bolalar Jarroxlik Klinik Shifoxonasi</b> 

## **Simulyatsion asbob/uskunalar**

